




TILAME

2-bosqich 1-semestr.  
11-mavzu:"Saddi Iskandariy" dostoni



Adabiyot

Abdukadirova M.M.



TILAME

# Saddi Iskandariy dostoni.

## Reja:

1. Dostonning yozilish tarixi va Iskandar haqida.
2. Asarning tuzilishi.
3. Asar haqida umumiyl ma'lumot.



## Tayanch atama:



TIIAME


**Me'rojnama** — Muhammad payg‘ambarning osmonga ko`tarilib, Olloh bilan uchrashishi me'roj deyiladi. Shu hodisaga bag‘ishlab yozilgan badiiy asarlar.

**“Xamsa”** — besh asar jamlangan to`plam.


**Maqolat** — mumtoz epik asarlaridagi ma'lum mavzuga bag‘ishlangan bobning nazariy qismi.

**Nazira** — musobaqa tarzida o’zidan oldingi ijodkor asaridan ilhomlanib yaratilgan asar.

Sharqda "Xamsa" yozgan ijodkorlarning o'z asarlarida  
Iskandarga bag'ishlangan dostonlarini quyidagicha  
nomlashgan.



“Saddi Iskandariy” G’arbu Sharqdagi eng mashhur siymolardan jahongir Iskandarga bag’ishlangan bo’lib, “Xamsa”ning yakunlovchi dostonidir.



Aleksandr Makedonskiy tarixiy shaxs bo’lib, Aleksandr Makedonskiy (356-323) sharqcha nomidir. Uning qarbyachilaridan biri mashhur Aristotel(Arastu) (384-322) bo’lgan. 326-yilda otasi Filipp II Makedonskiy, taxtga chiqadi. Aleksandr Makedonskiy 323-yilda 33 yoshida vafot etadi.



# “Saddi Iskandariy” dostonining tarkibiy tuzilishi.



TILAME

<b>1-4 bob</b>	<b>Hamd, munojot va rasululloh (s.a.v.) madhi, me'roj tuni ta`rifi</b>
<b>5-bob</b>	“Xamsa” takmili xususida
<b>6-bob</b>	So`z ta`rifi.
<b>7-bob</b>	Abdurahmon Jomiy madhi
<b>8-bob</b>	“Inoyat quyoshi vasfi va hidoyat buluti ta`rifida”
<b>9-bob</b>	Sulton Husayn Boyqaro madhi
<b>10-bob</b>	Badiuzzamon mirzo madhi
<b>11-14 boblar</b>	Peshdodiyalar, kayoniylar, ashkoniyalar va sosoniylar haqida



TIIAME

**"Saddi Iskandariy".** Mazkur asar "Xamsa"ning beshinchiyakunlovchi dostoni bo'lib, u 1484 yilning ikkinchi yarmida (taxminan noyabr oylarida) yozib tugatilgan. Bu holni Alisher Navoiyning shaxsiy kotiblaridan biri bo'lmish Abduljamilning yaxlit "Xamsa"ni 1484 yilda ko'chirgan va hozirda O'z RFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutiga saqlanayotgan nusxasi ham tasdiqlaydi. Bunga ilova tarzida shuni ham eslatish joizki, Abdurahmon Jomiy o'zining "Xiradnomai Iskandariy" dostonini 1484 yilning 28 dekabrida yozib tugatgan edi. Ayni ana shu dostondan Alisher Navoiy "Xamsa"siga Abdurahmon Jomiy tomonidan berilgan yuksak baho (Ba turki zabon naqshe omad ajab, Ki jodu damonro buvad muhri lab) o'rinni olgan.



TIIAME

- "Saddi Iskandariy" dostonining asosiy mazmun-g'oyasiniadolat, odil podshoh va insonning komillikka erishuvi bilan bog'lq masalalar tashkil etadi.
- Ma`lumki, Iskandar - makedoniyalik Aleksandrning Sharqdagi nomi bo'lib, aslida u eramizdan oldingi IV asrda yashagan mashhur sarkarda va jahondordir. Ammo Sharqda Iskandar o'z tarixiy "qolipini" gina saqlab qolib, adib va shoirlar asarlarida badiiyat qonuniyatları hamda yozuvchi adabiy-estetik niyatları asosida yaratilgan badiiy obrazdir. Bu badiiy obraz-Iskandar qaysi davrda yaratilgan bo'lsa, ana shu davr talab va ehtiyojlari asosida o'ziga xos tarzda yaratiladi. Natijada, Firdavsiy ham, Nizomiy ham, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy ham o'zlari istagan Iskandar badiiy obrazini chizdilar.



TIIAME

Navoiy ushbu dostonni “Saddi Iskandariy” deb atadi. Iskandar haqidagi kitoblarda uning odamho’r yajujlardan saqlanish uchun ulkan bir devor qurdirgani aytildi. Bu devor Qarvon o’lkasida Qof tog’ining etagida ekan. Bu devorning tarixan qay darajada aniq va to’g’riligi haqida bir narsa deyish qiyin. Lekin, uning katta ramziy ma’nosi bor. U ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi devor. Bu devorni barcha xalqlar birgalashib quradilar. Navoiy shu tariqa Iskandarning jahongarligiga emas, insonparvarligiga diqqatni qaratadi.



TIIAME

Asarning 27-bobi Iskandarning Doro ustidan g’alabasi va Doro mulkiga ega bo’lishi tasviriga bag’ishlangan. Demak, bunda g’oliblik kayfiyatı hukmron bo’lmog’i kerak. Ammo shu bob oxirida Doroni dafn etish marosimi tasviri ham bor. Alisher Navoiy voqealar tasviridan so’ng falsafiy yakun chiqaradi. Bu yakun esa xojagon tariqatidagi naqshbandiya yo’nalishi targ’ib etuvchi g’oyalar bilan mosdir. Bobdagि ikki tasvir - Iskandarning Doro ustidan g’alabasi va Doroning mag’lubiyati-yu o’limi shu jihatdan nihoyatda ibratli, ya`ni shoir har bir ish oqibatini o’ylash lozimligi va shunga asosan yashash, faoliyat ko’rsatish kerakligini uqtiradi:

*Navoiy, jahonda vafo yo ’qturur,*

*Aning da`b-u rasmi jafo - o ’q durur.*

*Vafo aylab, oning vafosin unut,*

*Navo istasang benavolig’ni tut.*

(11-tom, 194)



TIIAME

Kashmirdagi sehrlangan mustahkam qal`ani zabit etish, ya`juj-ma`jujlar yo`lini to'sish uchun qurilgan devor - Saddi Iskandariy va boshqa voqealarda asosan ana shu alloma va fozillarning hissasi ulug'dir.

Jumladan, Kashmirdagi sehrli qal`ani olish uchun ishlatilgan qurolning kashf etilishi, uning tuzilishi va sifatlari tasviri kishini hayratda qoldiradi. Bu qurol go'y-katta shar shaklida bo'lib, ichiga turli xil moddalar joylashtiriladi. Sharga pilik qo'yadilar va otganda pilikni yondiradilar. Shar mo'ljallangan joyga tushgach, shar portlaydi. Shunda undan, birinchidan, nihoyat bahaybat, qo'rquunchli sado-ovozi chiqadiki, u sehrlarni buzadi; ikkinchidan, shunday sho'la (nur, o't-olov) tarqaladiki, u qal`aning eshiklarini buzib tashlaydi; uchinchidan, undan qora tutun tarqalib, hamma joyni qoraytiradi; to'rtinchidan esa undan nihoyat zararli hid tarqaladi va odamlarning sezgi a'zolariga zarar yetkazadi (Kim ul dud ila is tugansun tamom, Ki nuqson topar elga andin mashom).



TIIAME

Demak, jamiyatning qaysi bosqichida, davrida bo'lmasin, uni boshqaruvchi shaxs ilm ahli va ilmiy xulosalar asosida ish yuritsa, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy hayotida rivojlanish, taraqqiyot, obodlik va osoyishtalikka erishiladi.

Shuning uchun mashhur allomalar - Aflatun, Arastu, Suqrot, Buqrot va boshqalar Iskandar bilan yonma-yon tasvirlanadi, ularning bilimi, pand-nasihatlaridan bahramand bo'ladi.

Kashmirdagi sehrlangan mustahkam qal`ani zabt etish, ya`juj-ma`jujlar yo`lini to'sish uchun qurilgan devor - Saddi Iskandariy va boshqa voqealarda asosan ana shu alloma va fozillarning hissasi ulug'dir.



TIIAME

Hikoyatlar orasida bulbul (58), baliqlar (62), kabutar (70) bilan bog’liq masallar ham mavjud. Bu hikoya va masallar bevosita Iskandar sarguzashti bilan bog’lanmagan. Hatto “Iskandar va gado” hikoyati (17) da ham Iskandar Kashmirni qo’lga kiritgan shoh sifatida qatnashadi. Vaholonki, dostonning asosiy sujetida u hali Yunoniston taxtini ham egallamagan edi. Demak bu hikoyat zohiran asosiy sujet bilan bog’langan bo’lsa-da, aslida u Iskandar emas Gado (darvesh) haqidadir. Hikoyat va masallar ma’lum bir masalaga oid (himmat, avf, muxolifat...) nazariy qarashlarni badiiy jihatdan tasdiqlash maqsadida keltirilgan, Shu jihatdangina ular doston umumiy yo’nalishining ajralmas qismi bo’lib hisoblanadi.



TILAME

Qondosh, qarindoshlar shu ahvolda bo'lsa, yotlar qanday bo'ladi?



Bu nav o'lsa mundog' ikki zot aro,  
Ne bo'lg'ay gumon qil ikki yot aro?

Xuddi shu o'rinda shoir ikki jahongir – Chingizzxon va Xorazmshox  
urishidagi ikki do'stning ittifoqligi daf etgan haqidagi rivoyat  
keltiriladi.



## “Saddi Iskandariy” saboqlari

- Pastdagilarning jahllari qanchalik qattiq qo'zg'almasin, xusumatlari yengil o'tadi, ulardan keladigan zararning ko'lami kam. Bu zarar mansabning ko'lami oshgan sayin kuchayib boradi. Shu jihatdan o'rta bo'g'indagilarning nizolari ashaddiyroq va ularning noahilligidan keladigan zarar ko'proq bo'ladi. Mabodo, bu mojaro oliv martabali sultonlar o'rtasida kechsa-chi?
- Bu go'yo jahon ichra to'fon erur
- Ki, andin jahon ahli vayron erur.





TIAME





TIAME





TIAME





*Сүйима Ганиева*  
**КҮНГИЛ ШАМЧИРОГИ**



TIIAME

## Mavzu bo‘yicha testlar.

1. Iskandar Eronni egallagach ko‘p podshohlar unga bo‘yin egib keladilar, ammo ba’zi mamlakat podsholari unga bo‘ysunishni istamaydilar. Bular qaysilar?

- A) Kashmir, Hind, Farang B) Chin, Farang, Hind C) Hind, Farang, Kashmir
- B) D) Kashmir, Hind, Chin

2. Navoiyning dunyo haqidagi qarashlari uning qaysi asarida o‘z aksini topgan?

- A) “Mezon ul-avzon” B) “Saddi Iskandariy”
- C) “Hayrat ul-abror” D) “Mahbub ul-qulub”

3. Iskandar arastudan nima haqida so`raydi?

- a)adolat b)do`stlik c)shohlik d)davlatq

4. Navoiy «Xamsa»sida qaysi shohga so‘ngak olib kelgan darvesh obrazi berilgan?

- A) «Saddi Iskandariy»da Chin xoqoniga B) «Saddi Iskandariy»da Iskandarga
- C) «Farhod va Shirin»da Chin xoqoniga D) «Sab’ayi Sayyor»da Bahromga



TILAME

**Uyga vazifa “Saddi Iskandariy”**  
dostonini o‘qish. Tisollarga tavsif  
berish.